

**ADABIY TA'LIM JARAYONIDA BADIY MATN USTIDA  
ISHLASHDA LOYIHALARNING AHAMIYATI***Tillayeva Rayxona Tuxtasinovna**Namangan davlat pedagogika instituti**Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri*

O'quvchilarni adabiy loyihalar yaratish, ilmiy-tadqiqot ishlariga qiziqtirishda zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari keng. Bu o'qituvchi rahbarligida tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish shaklida bo'lishi ham mumkin. Loyiha va tadqiqot ishlari o'quvchilar tomonidan darsda uy vazifasi sifatida ham topshirilishi mumkin. Loyihani qaysi dars uchun yoki turli mavzular doirasida tayyorlash mumkin. Bunda lug'at bilan ishlashga doir iboralar, eskirgan yoki yangi paydo bo'lgan so'zlar, shevaga xos so'zlar ma'nosini o'zlashtirish uchun "Arxaizmlar g'origa sayohat", "Shevalar o'lkasida", "Eskirgan so'zlarning orzusi" ilmiy loyihalarini yaratish orqali javob topish mumkin bo'ladi. Badiiy asarlarda uchraydigan ismlar, joylarning ma'nosi bilan bog'liq "O'zbek ismlarining etimologiyasi", "Nega hazrati Xizr haqidagi afsonalar mashhur?" kabi loyihalarni keltirish ham qiziqarli. Adabiyot darslari uchun loyiha taqdimotlarini yaratish ham tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishda samaralidir.

Loyihalarni "Adabiy viktorina", "Adabiy bahs" kabi ta'lim shakllaridan birini tashkil etgan holda "Alisher Navoiy Samarqandda", "Bobur yurgan yo'llar" tarzida ham taqdim etish mumkin. Bu olib boriladigan ishlarning bir tomoni. 10–11-sinf o'quvchilari bilan ishlashni boshlash ularning tayanch maktabda o'zlashtirilgan bilim zaxirasini saqlab qolish, loyiha-tadqiqot faoliyatida egallangan ko'nikma va malakalarni tadrijiy takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Izlanish usullari sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni qiziqarli va mazmunli tashkil etish imkonini beradi. Masalan, "Xalq og'zaki ijodi" ruknidagi namunalarni o'rganishda o'quvchilarga "Ajdodlarimiz dahosi" loyihasini bajarish taklif qilinadi. Bu o'rinda quyidagi bo'limlarda material to'plash va tizimlashtirish maqsadga muvofiq: "Sevimli qo'shiqlarim tarixi", "Qadimgi o'zbek tili", "O'zbek xalq o'yinlari" kabi. To'plangan materiallardan "Keling, o'lan yig'amiz (aytamiz)" portfoliosi, "Mavsum-marosim qo'shiqlari" taqdimotini yaratish mumkin. "Ritual she'riyat" yoki "O'zbek dostonlari taqvimini" loyihalari bo'yicha o'zbek xalq dostonlari va qo'shiqlarini taqdim etgan o'quvchilar uchun esda qolarli bo'ladi.

Uzoq muddatga mo'ljallangan loyihalardan biri "Adabiy o'lkashunoslik" to'garagining mashhur ijodkorlardan biriga bag'ishlangan "Bag'ishlov" ishidir. Unda o'quvchilar tomonidan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha materiallar to'planadi va tadqiq qilinadi: "Navoiy Samarqandda", "Sergey Esenin Turkiston o'lkasida" va h.k. Dars va

sinfdan tashqari mashgʻulotlarda matn yozish va tahrirlash, illyustratsiyalar yaratish, fotosuratlardan panoramik tasvirlar tayyorlash, jurnalistik janrlarni oʻzlashtirish: insho, intervyu, blits-soʻrov, anketalar tashkil etiladi. Ushbu loyihalardan “Oʻzbek maqollari”, “Maqollar va topishmoqlarining toponimik makoni”, “Oʻzbek topishmoqlarida oʻziga xos nomlarning oʻrni”, “Boburnoma”da oʻsimlik va hayvonot dunyosi” kabi ilmiy-tadqiqot ishlari olib boriladi. “Oʻzbek, qozoq, qirgʻiz va qoraqalpoq maqol va matallari”, “Turkiy xalq topishmoqlarida rang belgilash xususiyatlari”, “R.Parfi sheʼriyatida yomgʻir timsoli”, “Ertaklarda hayvonot dunyosi inson obrazining inʼikosi sifatida”, “Alisher Navoiy ijodida ranglar palitrasining xususiyatlari” va boshqalar. “Tabiat shaydosi – oʻlkashunos N.Norqobilov faoliyati”, “Usmon Azim ijodida xalqona ohanglar” mavzulari asosida “Oʻzbek adabiyoti koʻzgusi” taʼlim dasturlari sikli” loyihasi yaratilishi va ishga tushirilishi belgilanadi. Buning uchun dastlab loyiha eʼlon qilinadi va taqdimoti oʻtkaziladi.

Oʻquvchilar tadqiqot faoliyatining natijasi muayyan bir taʼlimiy “mahsulot”, yaʼni hisobot, referat, loyiha va modellarni yaratish bilan yakunlanadi. Bularning barchasi oʻquvchiga fikrini ijodiy ifodalash, oʻz ishini dars jarayonidan tashqarida ham, xususan, turli tanlovlar, festival, seminar, ilmiy-amaliy konferensiyalarda ham taqdim etish imkonini beradi. Taʼkidlangani kabi tadbirlarda ishtirok etish oʻquvchilarning ijtimoiylashuviga, ularning ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga, bitiruvchi sinflarda taʼlim profilini aniqlash va buning natijasida kasbni toʻgʻri tanlashga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, adabiy taʼlim jarayonida oʻquvchilarning tadqiqotchilik faoliyati alohida bosqich sanaladi. Masalan, materialni tushuntirish, uy vazifasini bajarish bosqichidagi usul sifatida yoki butun darsni egallab, uni tadqiqot darsiga aylantirishi mumkin. Tadqiqot ishi oʻquvchilardan maksimal darajada oʻzini oʻzi boshqarishni va mustaqillikni talab qiladi. Oʻquvchi izlanish faoliyatini olib borar ekan jarayonda turli xil axborot manbalari bilan ishlash, koʻchirmalar olish, mavjud maʼlumotlar ichidan zarur fikrlarni tanlash qobiliyati shakllanadi. Tadqiqotning muhim nuqtasi – bu bilim obyektining xususiyatlarini izlash, topish va ularni yangi vaziyatlarda qoʻllashdan iborat. Oʻquvchi amalga oshirayotgan tadqiqot faoliyatining yuqori darajasi oʻrganilayotgan obyektning yangi, ilgari nomaʼlum boʻlgan jihatlarini izlash davrida amalga oshadi. Oʻzi uchun notanish boʻlgan maʼlumotlarni izlash jarayoni tadqiqot, tajriba, shaxsiy kashfiyotlar yigʻindisidir. Kashf qilinganlar asosida oʻquvchilar oʻzlarining yangi gʻoyalarini turli yoʻnalishlarda topish va imkon qadar amalda qoʻllashga yoʻnaltiriladi. Jumladan, nazariy faoliyat sohasida farazlar, belgi-xususiyatlarni aniqlash va rivojlanish prognozlarini ishlab chiqish kabilar.

Har bir tadqiqot mavzusini *oʻquvchi – oʻqituvchi – oila* ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan qadam deyish mumkin. Tadqiqot olib borish orqali oʻquvchi ijodiy muhitga kirib boradi va avtomatik ravishda bu jarayonga moslashadi. Bu yerda

o‘quvchi-tadqiqotchi yangi bilimlarni oladi, jamlaydi va umumlashtiradi. Eng muhimi, DTS, adabiy ta’lim konsepsiyasi, o‘quv dasturida belgilangan malaka talablarini bajarish, shuningdek, o‘zi uchun avval noma’lum bo‘lgan bilimlarni izlashga e’tiborini qaratadi. Ko‘rinadiki, yuqorida keltirib o‘tilgan omillar tadqiqot ishining qimmatini yanada oshiradi. Bu esa o‘quv faoliyatida maxsus shakl va usullardan foydalanishni taqozo etadi. O‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishga imkon beruvchi samarali vosita bu guruhlar ishini tashkil etishdir. Bunda o‘quvchilarni guruhlariga bo‘lish va quyidagicha vazifalarni taqsimlash maqsadga muvofiq:

**1. Tarixchilar – tadqiqotchilar guruhi.** Bunda o‘rganilayotgan asarning yozilish tarixi, muallif maqsadi, qahramonlar prototipi haqidagi materiallarni to‘plash va ular bilan ishlash masalalari ko‘zda tutiladi. Masalan, 11-sinfda “O‘tkan kunlar” romanining yozilishi haqidagi materiallarni o‘rganish: muallif maqsadi, asarning yozilishiga turtki bo‘lgan omillarni aniqlash va chuqurroq tanishish kabi masalalarni tadqiq qilish imkonini beradi. Jumladan, quyidagi materialni topishni tavsiya qilish, o‘qib-o‘rganish va tahlil qilishga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish o‘quvchilarga muallifning maqsadini yanada aniqlashtirishga yordam beradi: “Yozmoqqa niyatlanganim, – deydi yozuvchi asar “So‘z boshi”sida, – ushbu “O‘tkan kunlar”, yangi zamon ro‘manchilig‘i bilan tanishish yo‘lida kichkina bir tajriba, yana to‘g‘risi, bir havasdir. Ma’lumki, har bir ishning ham yangi – ibtidoiy davrida talay kamchiliklar bilan maydong‘a chiqishi, ahllarining yetishmaklari ila sekin-sekin tuzalib, takomulga yuz tutishi tabiiy bir holdir. Mana shuning daldasida havasimda jasorat etdim, havaskorlik orqasida kechaturgan qusur va xatolardan cho‘chib turmadim” [1].

Quyidagi lavhaga asoslanilsa, nafaqat romanning yozilishi sabablari, balki sujeti va kompozitsiyasi haqidagi nazariy tushunchalari doirasi kengayishiga ham erishiladi: “Qariyb yarim asr umrini xon zamonlarida yashagan, talay o‘tmish voqealarining shohidi bo‘lgan otam yoshligimda qiziq-qiziq xotiralarni so‘zlab berardi. Bu xotiralar menda tarixga qiziqish uyg‘otdi. So‘ngra o‘sha davrimiz tarixiga oid ancha kitoblar bilan ham tanishib chiqdim. Qo‘lim qalamga kelishib qolgach, menda ana shu o‘tmishimizdan G‘arb romanchiligi asosida kattaroq bir asar yaratish havasi tug‘ildi. Tarixiy voqealar boshimda shu qadar ko‘p, go‘yo qaynar, menga tinchlik bermas edilar. Ammo bu voqealarni qanday qilib bir ipga tizishni, qog‘ozga tushirishni tasavvur qila olmasdim. Uzoq vaqt o‘ylab, izlab yurdim.

Kunlarning birida bog‘imizga, otamni ko‘rgani eshak minib shahardan bir chol mehmon bo‘lib chiqdi. Mehmonni men tanimasdim. U otamning eski qardoni ekan. Mehmon qildik. Otam shu choqlarda yuz yoshlarda bo‘lib, mehmon esa undan besh-o‘n yosh kichik ko‘rinar edi. Ular suhbat qilar qilarkan, quloqlari og‘irlashib qolgani uchun bir-birining so‘zlarini yaxshi eshita olmas edi. Shu sababli menga ular o‘rtasida tilmochoq bo‘lib, choy quyib o‘tirishga to‘g‘ri keldi. Otam mehmondan so‘radi: “Andijondagi xotiningizdan nechta bolangiz bor?”. Ularning suhbatidan men

angladimki, bu mehmon toshkentlik bo‘lib, uyli-joyli, bola-chaqali kishi ekan. Ammo yoshlik chog‘larida savdo vaji bilan Andijonga borib qolib, u yerda ko‘p yillar istiqomat qilgan, Andijondan ham uylanib, bola-chaqali bo‘lgan va keksaygach, o‘z shahriga qaytib kelgan ekan.

Mehmonning ana shu soddagina tarixi menga chuvalgan ipning uchini topib berganday bo‘ldi. Shu asosda boshimda voqeani asta-sekin kengaytira, rivojlantira boshladim. Besh-olti xayol surishim natijasida romanim hozirgi shakliga keldi va qo‘limga qalam oldim”[2]. Tabiiyki, bunday ma’lumotlar asarlar haqidagi ma’lumotlarni chuqur tadqiq etishni, professor S.Matchonov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarni o‘rganish va idrok qilishda ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlash muhim o‘rin tutgani kabi ba’zi asarlar matnini o‘rganishga oid kirish mashg‘ulotlarida ularning yaratilish tarixiga doir ma’lumotlarni keltirish ham yaxshi samara beradi” [3]. Natijada o‘quvchilar tasavvurida ijodkorlarning ko‘rgan-kechirganlari barobarida ularning o‘z o‘tmishlari orqali hayotdagi real vaziyatlarga, jamiyatdagi mavjud muammolarga munosabatlarini bildirish ko‘nikmalari ham shakllana boradi. Tarixchilar – tadqiqotchilar guruhi faoliyatida K.Qahhorovanning “Chorak asr hamnafas”, Z.Saidnosirovaning “Oybegim mening”, H.Qodiriyning “Otam haqida”, Otayorning “Quyoshni ko‘rgani keldim”, M.Ahmedovanning “Men qaytib kelaman” kabi esdaliklari mazmunidagi adabiyotlarni tavsiya qilish o‘rinlidir.

**2. Geograflar – tadqiqotchilar guruhi.** Guruh a‘zolari asar voqealari sodir bo‘lgan joylarni tasavvur qilish, o‘sha joylar haqida material to‘plash va buni matn (referat, loyiha) ko‘rinishida ifodalashlari zarur bo‘ladi. Fikrimiz isboti sifatida Zahiriddin Muhammad Bobur yurgan yo‘llar trayektoriyasini o‘rganishda ijodkor tomonidan qoldirilgan bitiktoshlar tarixi yoki Xalqaro Bobur ekspeditsiyasi faoliyati haqidagi maqolalar bilan tanishtirish usullari ham ahamiyatlidir. Xususan, bu borada “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi”[4], Mirzo Kenjabekning “Buyuklar izidan”[5] nomli kitoblaridan unumli foydalanish mumkin. V.Rahmonov va Sh.Nishonovlarning “Bobur yurgan yo‘llardan...” nomli maqolasidagi quyidagi ma’lumotlar o‘quvchilarni shoir hayotining mashaqqatli va sinovli kunlari bilan yaqindan tanishtirishga, bugungi avlodga uning shaxsiyatidagi ibrat olishga arzigulik sifatlarni tahlil qilishga qiziqtiradi:

“2009-yilning sentabrda Xalqaro Bobur ekspeditsiyasi Qirg‘iziston, Tojikiston, Afg‘oniston bo‘ylab Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Haydar mirzo haqida ilmiy, amaliy, ashyoviy dalillar izlab yo‘lga chiqdilar. Ular dastlabki topilmani Tojikistonning Ayniy va Mascho tumanlaridagi qishloqlarni kechganda duch kelishdi. Shamtuch qishlog‘ining Durust qabristoni shundoqqina Zarafshon sohilida joylashgan. U yerdagi yirik qora xarsangtoshlarda ko‘plab toshbitiklar saqlangan. Safardoshlar qabriston oralab har bir arab yozuvidagi toshbitiklar, forsiy matnlarni hijjalab o‘qishdi.

Nihoyat Zahiriddin Muhammad Bobur qo‘li bilan bitilgan va ushbu xat unga tegishli ekanini isbotlovchi yozuvga duch kelishdi:

“Kofiro, madumshikoro, yak zamon ohistatar,  
Kohui bechoraro tobi tiri turkon nest.

**h. 907-y. Hararu Bobur, Katabai miram Boburxon”.**

**Tarjimasi:**

“Ey kofir, odam ovchisi, bir lahza shoshma,  
Sho‘rlik ohu turk o‘qiga bardosh berolmaydi.

**1502-y. Men, Bobur yozdim. Amirim Boburxon bitiklari”.**

Ekspeditsiya a‘zolari Obburdon tevarak-atrofidagi qishloqlardan mashhur Bobur toshbitigi – matni “Boburnoma”da keltirilgan qayroqtoshni so‘rab-surishtirishdi. So‘ng toshning 1953-yil poytaxtga olib ketilgani haqida ishonchli ma‘lumotga ega bo‘ldilar. Ekspeditsiya a‘zolari Dushanbe shahridagi Tojikiston xalqlari qadimiyat san‘ati muzeyida o‘sha toshni ko‘rish, rasmga olish va o‘rganishga muvaffaq bo‘ldilar. “Boburmoma”dan iqtibos: “Maschoning pastki kenti Obburdondir. Bu Obburdondan quyiyoqda bir chashma bo‘lib, bu chashma tepasida bir mo‘zor turipti. Ushbu chashmadan yuqorisi Maschoga qarashli. Quyisi Palg‘arga taalluqlidir. Ushbu chashma boshida uning yoqasidagi toshga bu uch baytni o‘yib yozdim:

**Shunidamki, Jamshedi farruxsirisht,**

Ba sarchashmae bar sange navisht:

“Bar in chashm chun mo base dam zadand,  
Biraftand to chashm barham zadand.

“Kofiro, madumshikoro, yak zamon ohistatar,  
Kohui bechoraro tobi tiri turkon nest.

**h. 907-y. Hararu Bobur, Katabai miram Boburxon”.**

*Mazmuni:*

Eshitganim borki, Jamshiddek nomdor

Bir buloq toshiga yozdirdi yodgor:

“Bu buloq boshiga ko‘plar etdilar,

Ko‘z yumib ochguncha yitib ketdilar.

Mardligu zo‘rlik-la olamni oldik,

Lekin qabristonga quruq yo‘l soldik”.

Bu tog‘li maskanda toshga o‘yib bayt va narsalar bitish odatdir”.

Ming to‘qqiz yuz ellik uchinchi yili arxeologik ekspeditsiya Obburdon qishlog‘idan Bobur yozdirgan o‘sha xarsangtoshni topadi. “Boburnoma”da qayd etilgan tafsilot dalili shu yo‘sin qo‘lga kiritiladi”[6]. Bunday mazmundagi qiziqarli ma‘lumotlar o‘quvchilarda “Boburnoma”dagi joylar tasviri bo‘yicha izlanishlar olib borish, muallifning aynan o‘sha yerlarda yurishi sabablarini aniqlashtirish, xaritalar

bilan ishlash, toponimlar tarixi xususida izlanishlar olib borish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

**3. Ijodkorlar guruhi.** Guruh a‘zolariga asar matnning bir qismi mazmunini qisqacha bayon qilish, mazmuni yuzasidan viktorina savollari tuzish topshirig‘i beriladi. Bunda “Uchlik kundalik” texnologiyasi qiziqarli bo‘lib, u asosan, she‘riy va nasriy asarlar yuzasidan izlanishlar olib borishda qo‘llaniladi. Bunda o‘quvchilariga asardan iqtiboslar olish; mazmunini tahlil qilish; savol-topshiriqlar tuzishni o‘rganish vazifalari taklif qilinadi. Mustaqil ishlardan biri sifatida tavsiflanadigan ko‘chirma (sitatalar) olish ijodiy ishlarni tayyorlashda o‘quvchining o‘z fikrini asoslash, boshqalarni ham taniqli mualliflar fikri bilan tanishtirish, shaxsiy nuqtayi nazarini aniqroq bayon etish hamda badiiy matn orqali asar tilining o‘ziga xosligini ko‘rsatishga yordam beradi. Shuningdek, bu tarkibga tadqiqotchining muammo yuzasidan adabiyotlarni o‘rganganlik darajasini ham qo‘shish mumkin bo‘ladi. Ko‘chirmalar olish o‘quvchini mustaqil ishlashga o‘rgatishi barobarida olingan manbalarning ishonchliligini ham ta‘minlaydi. Navbatdagi bosqichda tahlil va savol-topshiriqlar bo‘yicha ishlanadi.

**4. Korrektorlar guruhi.** Ular noto‘g‘ri ishlatilgan ma‘lumotlar bo‘yicha xatolarni aniqlash, tuzatish va savollar berish vazifasini bajaradilar. Adabiy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni so‘z qo‘llashga nisbatan ahamiyatli bo‘lishga o‘rgatish muhim talab hisoblanadi. Mazkur jarayonda o‘spirinlarni yosh tanqidchi rovida ko‘rish, so‘zning ta‘sir kuchini tuyish, so‘z sehrini his qilish, uning zamiridagi ma‘noni anglashga o‘rgatish yo‘llari taqozo qilinadi. Tengdoshlarining insho, taqriz, tezis, etud kabi ijodiy ishlarini o‘zaro tekshirish vazifasini zimmasiga olish orqali va munosabat bildirish asnosida o‘zgaralar fikriga qo‘shilish yoki o‘zgacha tafakkur tarzini namoyon qilish malakalari qaror toptiriladi. O‘spirin endi faqat o‘zi yaratishi emas, balki munosabat bildirishni, ijod namunasini tahrir qilishni – uslubiy ishlov berishni; biror so‘z yoki jumla bayonida qarashlarini asoslashi, dalillarini umumlashtirish, tahlillarni yoqlash yoki inkor etish yo‘llarini ham o‘zlashtirish muhimdir. Bu ularning kelgusidagi ilmiy faoliyatiga daxldor kichik tadqiqot namunalari bo‘lib, o‘quv materiallarini taqqoslash va umumlashtirish taqozo etiladigan savollar tuzish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Masalan, loyiha ishlari matnini yozishda takrorlardan qochish, ayrim so‘z turkumlarini olmoshlar bilan almashtirib qo‘llash shular jumlasidandir. Bunday ish turlari o‘quvchilarning tasavvurni tiniqlashtiradi, ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi, aqliy faoliyati unumdorligini oshiradi, tadqiqot ishining eng yuqori bosqichiga – loyiha yaratishga zamin yaratdi. Bunday hollarda o‘quvchilarning fikrlashi notanish, tushunarsiz va kutilmagan vaziyatlarga duch kelganidagi hayrati va qiziqishi orqali boshlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. Roman. – Toshkent: Universitet, 2018. – 9-b.
  2. Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. Хотиралар. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 63-64-б.
  3. Матжон С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 121–122-б.
  4. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi / Tahrir hay’ati A.Qayumov va boshq. – Toshkent: Sharq, 2014. – 744 b.
  5. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi / Tahrir hay’ati A.Qayumov va boshq. – Toshkent: Sharq, 2014. – 744 b.
  6. Rahmonov V., Nishonov Sh. “Bobur yurgan yo‘llardan...” // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2017. – № 2. – B. 49-50.
  7. Sobirova, M. (2022). **Anthropocentric approach to language. ISJ Theoretical&Applied Science, 07(111)**, <http://t-science.org/axivDOI/2022/07-111.html-P36-39>.
  8. **Sobirova, M.** (2022). In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>
  9. Sobirova, M. (2021). The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021. Part 3 – 234 p. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9634%20-%203%20%28web%29.pdf> стр. 98-105
- 1**
- 0**
11. Абдулвохидов Э. МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ //Conferencea. – 2023. – С. 16-20.
  12. Абдулвохидов Э. Педагогическая концепция писателей как средство обогащения педагогического процесса //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 666-675.
  12. Абдулвохидов Э., Акрамхонова М. ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО ИММУНИТЕТА //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 1233-1239.
  13. Абдулвохидов Э. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ (на примере педагогической концепции А. Авлони) //Boshlang ‘ich sinf

- o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. – 2023. – C. 206-207.
14. Egamberdiyeva S. BOLALAR FOLKLORIDA BSHIK QO'SHIQLARI POETIKASI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 17. – C. 61-67.  
<https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/4233/4052>
15. Mamajonovna S. E. O'ZBEK XALQ OG'ZALI IJODIDA ONALIK FOLKLORI POETIKASI //THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH. – 2023. – T. 2. – №. 13. – C. 67-73.  
<https://interonconf.org/index.php/taare/article/view/2654/2375>
16. Mamajonovna E. S. O 'ZBEK VA TURK ALLALARIDA OTA OBRAZINING QIYOSIY TALQINLARI //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 561-564.  
<https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1851/1689>
17. Habibullayev, Nodirbek Nosirjon O'G'Li QOZOQ VA O'ZBEK TILIDAGI MODAL SO'ZLAR CHOG'ISHTIRMASI // ORIENSS. 2023. №5. URL:  
<https://cyberleninka.ru/article/n/qozoq-va-o-zbek-tilidagi-modal-so-zlar-chog-ishtirmasi> (дата обращения: 01.02.2024).
18. Tojiddinova N. H. LINGUOCOGNITIVE FEATURES OF THE PUZZLES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 1099-1101.  
<https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1922/1484>
19. Tillayeva R. O 'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRIHSDA TADQIQOT ISHI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI //O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI YOSH FILOLOG OLIMLAR JAMIYATI. C.439.  
[https://tsuull.uz/sites/default/files/02\\_06\\_22\\_toplam\\_til\\_va\\_adabiyot\\_ilmiy\\_va\\_amaliy\\_izlanishlar\\_volidagi\\_0.pdf#page=439](https://tsuull.uz/sites/default/files/02_06_22_toplam_til_va_adabiyot_ilmiy_va_amaliy_izlanishlar_volidagi_0.pdf#page=439)
20. Убайдуллаев Ш.Н. Чет тил дарсларида маданиятлараро мулоқотга ўргатишнинг асосий хусусиятлари. Best Practices in Distance Education in Learning Foreign Languages. International Scientific Conference. –Т., UzSPIC. 2009. – P. 277-279.
21. Убайдуллаев Ш.Н. Символические значение цвета в фразеологических единицах на материале английского, немецкого, русского и узбекского языков. International Scientific Journal. Philadelphia, USA. 2019. №12. –P. 42-44. (ISSN:2409-0085)



22. **Dehqanva Guljahon Ahmadjonovna.** (2023). NATIONAL -CULTURAL CHARACTERISTICS OF LEXICAL UNITS EXPRESSING THE ECONOMICAL CONDITION OF A PERSON'S LIFE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7951344>
23. **Dehqanova G. A., Polvanova M. F.** NATIONAL-CULTURAL SPECIFICITY OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 159-164. <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/545/544>
24. **Bobajonova Mavjuda.** International Journal of Formal Education. ISSN:2720-6870 . Development of Lingvokultural Inofons Competense on Russian Lessons. <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe>
25. **Пардабоева Д. Р.** Методы обучения на уроках русского языка //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 957-961.
26. **Пардабоева Д. Р.** Модели личностно-ориентированного подхода в обучении русскому языку //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 952-956.
27. **Олимова Моҳидил.** СВОЕОБРАЗНЫЕ ЧЕРТЫ ИВАНА АЛЕКСЕЕВИЧА БУНИНА .International journal of advanced research in education, technology and management ISSN:2349-0012. [vol. 2.2, 2- hind.pdf](https://www.ijar-em.com/vol222/hind.pdf)
28. **R.T. Tillayeva. M.M.Q. Mo'minova.** O'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishda adabiy-tanqidiy materiallardan foydalanish metodikasi "Science and Education" Scientific Journal / [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz) November 2023 / Volume 4 Issue 11 [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Hj9TC0QAAAAJ&citation\\_for\\_view=Hj9TC0QAAAAJ:u5HHmVD\\_uO8C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Hj9TC0QAAAAJ&citation_for_view=Hj9TC0QAAAAJ:u5HHmVD_uO8C)